

RUS TILI DARSLARIDA MATNLAR USTIDA ISHLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Xojibekova Mushtariybegim Adxamjon qizi

Andijon qisqloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti

O'zbek tili pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrası assistenti

Mirzayev Sirojiddin Bekmirza o'g'li

Andijon qisqloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan, o'quvchilarning rus tili darslarida matn bilan ishlash hamda u orqali bilim, tafakkurlarini oshirishi hamda o'quvchilar bilan matn ustida ishlash bilan birgalikda ularning nuqtqiy kompetensiyalarini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. O'quvchilarda matnlarni tahlil qilish, ularni tasvirlab berish jarayonida nutqiy tafakkurni oshishi, matn turlarini mustaqil ajratishi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: matn, salohiyat, ifodali o'qish, tahlil qilish, rasmlı matn, ekspressiv nutq

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАБОТЫ С ТЕКСТАМИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Хожибекова Муштарийбеги Адхамжон кизи

Ассистент кафедры узбекского языка, педагогики и физической культуры

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий

Мирзаев Сирожиддин Бекмирза угли

Студент Андıжанского института сельского хозяйства и агротехнологий

Аннотация: В данной статье рассматривается одна из наиболее актуальных проблем современного образования — работа с текстом на уроках русского языка. Особое внимание уделяется развитию знаний и мышления

учащихся посредством работы с текстом, а также формированию и совершенствованию их речевых компетенций. Освещаются вопросы анализа текстов, их описания, развития речевого мышления и самостоятельного различения видов текстов учащимися.

Ключевые слова: текст, потенциал, выразительное чтение, анализ, иллюстрированный текст, экспрессивная речь.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF WORKING WITH TEXTS IN RUSSIAN LANGUAGE LESSONS

Khojibekova Mushtariybegim Adkhamjon qizi

Assistant of the Department of Uzbek Language, Pedagogy and Physical Culture

Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Mirzayev Sirojiddin Bekmirza o'g'li

Student of Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnologies

Abstract: *This article discusses one of the most relevant issues in modern education — working with texts in Russian language lessons. Special attention is paid to enhancing students' knowledge and thinking through text-based activities, as well as to developing their communicative competencies. The article addresses the development of speech thinking in the process of text analysis and description, and students' ability to independently distinguish different types of texts.*

Keywords: *text, potential, expressive reading, analysis, illustrated text, expressive speech.*

Hozirgi kunda maktablarda rus tilini o'qitishda sezilarli darajada o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. "Ta'lim to'g'risida" gi yangi qonun O'zbekiston davlat ta'lim standartining asosiy yo'nalishini belgilaydi – bu ta'lim sifatini oshirishdir. Bu muammoning yechimi ta'lim mazmunini modernizatsiya qilish, o'quv jarayonini tashkil etish usullari va texnologiyalarini optimallashtirish va, albatta, qayta ko'rib

chiqish kabi vazifalardan iboratdir. Vazifalarning asosini shakllantirish bilan bog'liq kompetentsiyaga asoslangan kommunikativ kompetentsiya asos bo'la oladi.

Zamonaviy hayot o'quvchidan rus tilni yaxshi bilishni, turli vaziyatlarda, o'zini erkin his qilib turli odamlar bilan muloqot qila olishini talab qiladi. Shuning uchun, izchil taqdim etish qobiliyatini rivojlantirish og'zaki va yozma shakldarus tilida fikr yuritish, yozilgan narsalarni tahlil qilish va takomillashtirish, fikrni malakali ifodalash qobiliyati muhokama qilinayotgan masala bo'yicha – o'quvchilar rus tilidagi nutqi va fikrlash faolligini rivojlantirishning eng muhim yo'nalishlaridandir.

Rus tili darslarida matn bilan ishlash o'quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularning rus tilida so'z boyligini kengaytirish, nutq sifatini oshirish imkonini beradi. Rus tili darslarida matn yaratish, nutq muhitini rivojlantirish uchun asosdir. O'quvchilarni rus tilining go'zalligi bilan tanishtirish, so'zga ehtiyotkorona va o'ychan munosabatda bo'lishni tarbiyalash kabi maktab ta'limining muhim muammolardandir. Darslarda matn bilan doimiy ishlash menimcha, rus adabiyoti asarlari asosida olib borilishi kerak. Bundan tashqari eng samaralilari matn bilan ishlashni tashkil etishning quyidagi shakl va usullari: murakkab va lingvistik-stilistik tahlillar, matn, incho yozish, matnni tahrirlash, har xil turdagi diktantlar, rasmlari matnlari bilan ishlash, turli o'yin vaziyatlari.

O'zbek maktablarning rus tili darslarida o'quvchilar bilan matnlar ustida ishlashda dastavval hajm jihatidan kichik va mazmunan o'quvchilar tushunib tahlil qilishi uchun osonroq matnlargdan foydalangan maqsadga muvofiqdir. O'quvchining til bilish darajasi o'sishi va o'zlashtirish qobiliyatiga osishishiga keginchalik murakkab matn tahliliga o'tish samarali natija beradi.

Maqsadli matnlar shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi, xotira madaniyati, o'tmish, hozirgi va kelajakka munosabat, milliy an'analar, ekologik muammolar haqida ibrat bo'lishi darkor. Bu esa har qanday nutq turidagi matnni tahlil qilishning taxminiy rejasi:

1. Matnni ifodali o'qish.
2. Lug'at bilan ishlash.
3. Matn mavzusi.

4. Matnning g'oyasi.
5. Matn turi.
6. Matn uslubi.
7. Ekspressiv nutq vositalari va ularning roli.

Rasmi matnlari bilan ishlash, ikki matnni solishtirish, o'quvchilar matnni idrok etish va tushunchasi orqali o'z ifodasini, kompozitsiyasini yaratishga boradi, bu esa o'quvchilar e'tibori va tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbek maktablarining 5 chi sinf rus tili darsligi 13-14 darslar “ Имя прилагательное (Sifan so'z turkumi)” mavzusini o'rganishda “Русская изба” nomli matn berilgan. Matn o'quvchilarga birinchi topshiriq sifatida quyidagicha vazifa berilgan “ matnni o'qing va rus millatiga tegishli uylar va uy odatlari haqida tarnishing”

O'quvchilar avval berilgan matnni bir necha marotaba o'qib chiqishadilar va ustozlari yordanida matn ichida ularga notanish bo'lgan so'zlarning tarjimasini tahlil qilishadilar va mantnga oid berilgan savollarga og'zaki javob berishadilar. Bu matn mano va hajm jihatidan yengil hisoblanadi. Matn bilan tanishish jarayoniga o'quvchi nafaqat rus tilini balkim, rus millatining qadriyatlari, o'ziga hos jihatlari bilan ham tanish boradi bu esa tilni yana ham yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi.

Darslikning “Семья Традиции” 16-mavzusida rus va o'zbek millatining oilalari haqida mant berilgan. Matnni o'qib bolalar o'zbek va rus oilalalarining qadriyatlari an'analari va faqat usha millatgagina hos bo'lgan urf-odatlari haqida tanishadilar.

O'quvchilar matn bilan tashib chiqishadi va matn ostidagi savollarga javob berishadi. Matnga oid rasmlarda foydalanib o'zlari mustaqil rus tilida mant tuzishadi.

Bunday matnlar o'quvchilarda rus tiliga bo'lgan muhabbatni oshiradi, rus tilida fikirlash qobiliyatini shakillantiradi, nafaqat tilni o'rganish balkim, shu til egalarining urf odatlarini, an'alarini qadriyatlari bilan ham tanishib tassavvur hosil qilib borishga yordam beradi.

O'zbek maktablarida rus tili darslari o'tilishi ham bejis emas chunki oliy ta'limda o'quvchilar davlat imtixonlarini o'zbek va rus tillarida topshirishadilar,

shuning uchun butun maktab kursi davomida matn bilan ishlashdan keng foydalanish va o'quv, ilmiy-ommabop jurnallarni o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Matnlar, shu asosda kitob bilan ishlashda umumiy ta'lim ko'nikmalarini shakllantiradi, matnni tahlil qilishni o'rgatadi, tilning estetik funksiyasiga e'tibor beradi; turli uslub va janrdagi matnlarni yozma ravishda takrorlash, izohlash va yaratishga o'rgatadi.

Shuning uchun (ayniqsa, o'rta maktabda) matnni ko'p usulda tahlil qilish juda muhimdir:

- ✓ kompozitsion va mazmuni (mavzuni, matnning asosiy g'oyasini aniqlash, kichik mavzularni ajratib ko'rsatish va boshqalar);
- ✓ stilistik (matnning ma'lum bir nutq uslubiga tegishliligini asoslash, uslubga xos
- ✓ bo'lgan til vositalari va stilistik vositalarini ajratib ko'rsatish);
- ✓ tipologik (matndagi yetakchi nutq turini ajratib ko'rsatish, matndagi turli tipik
- ✓ bo'laklarning kombinatsiyasini ko'rsatish);
- ✓ alohida matn elementlarini lingvistik tahlil qilish (fonetik, orfoepik, so'z
- ✓ shakllantiruvchi, belgilangan so'zlarning leksik, morfologik tahlili, ibora va gaplarni sintaktik tahlil qilish);
- ✓ alohida so'zlarning imlosini va gaplarning tinish belgilarini tahlil qilish (imlo va tinish belgilari).

Matnlar uchun topshiriqlar rus tili kursining barcha mavzularini, barcha imlo va punktogrammalarni qamrab oladi. O'rta maktabda ushbu matnlar bilan ishlash ayniqsa samarali bo'lib, rus tilini chuqur takrorlash, matnni har tomonlama tahlil qilish. Imlo va punktogrammalarga ega bo'lgan bu matnlar nafaqat yuqori sinf o'quvchilari, balki individual ish, guruh, sinf bilan ishlashga imkon beradi.

Matn yaratish matn ustida ishlash jarayoni bilan uyg'unlikda olib borilishi zarur. Har bir yaratilgan matnning takomiliga yetishi matn ustida olib boriladigan grammatik va tahririy ishlarga bog'liq bo'lib, bu leksik (so'z tanlash, so'zlarning o'zaro aloqador uyadoshlari, sinonimlari va uslubiy bo'yoqdor variantlarini topish,

turg'un so'z birikmalari va iboralardan o'rinli foydalanish), grammatik (so'z va gaplarni, matn qismlarini bog'lovchi vositalarni to'g'ri qo'llash, sintaktik sinonimik vositalardan o'rinli foydalanish), matnda qo'llangan tinish belgilarini to'g'ri qo'llash matnning mazmunii va grammatik mukammaligini ta'minlaydi.

Xulosa. Matnni nisbatan to'liq lingvistik tahlili ko'p vaqt talab etadi va faqat maxsus darslarda ham foydalanish mumkin. Oddiy rus tili darslarida, fonetika, lug'at, morfologiya, sintaksisni o'rganishda, takroriy darslarda, o'rganilgan materialni umumlashtirish va tizimlashtirishda o'qituvchilar ko'pincha matnni qisman til tahlilidan foydalanadilar, bu ishni imlo me'yorlarini o'zlashtirish va olib borish bilan bog'lash mumkin.

Matn bilan keng qamrovli ish darsda yangi materiallarni o'rganish va takrorlashning munosabatlarini ta'minlash, subyekt ichidagi va fanlararo aloqalarni amalga oshirish uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

Matn yaratishga yo'naltiruvchi lingvopsixologik o'quv topshiriqlari tizimini rus tili ta'limiga keng joriy etish o'quvchining so'z boyligini oshirish, egallagan bilimlarini qiyoslash, analiz va sintez qilish asosida mustaqil ijodiy fikrlash, o'z fikrini ifodalash jarayonida so'zlarni tanlab ishlatish kabi ehtiyojlarni yuzaga keltirishga yordam beradi. Shunga yo'naltirilgan ko'nikma va malakalarni uzluksiz shakllantirib va rivojlantirib borish esa o'quvchi nutqiy mahoratining oshib borishiga va ijodiy tafakkur ko'lamining kengayishiga, asta-sekin matn yaratish ko'nikmalarining avtomatlashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ulomov A., Qosimov B. Rus tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
2. Rasulov R. O'rta maktabda rus tili o'qitish jarayoni. – Toshkent: Fan, 2015.
3. To'xlieva N. Til o'rganishda matn bilan ishlashning samarali usullari. – Toshkent: Universitet, 2020.
4. Леонтьев А.А. Проблемы обучения пониманию текста. – Москва: Педагогика, 2003.

5. Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам. – Москва: Просвещение, 2016.
6. Бим И.Л. Концепция обучения чтению и работе с текстом. – Москва, 2015.